



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– avgust oilariga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **1310 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining ulushi **1,3 f.p kamaydi**.
- Tugatilgan korxonalariga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **1147 taga oshgan**.


2018 yilning yanvar-avgust oyida Respublikada 1866 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 489 ga ko'pdir.

Shuningdek, faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,0 % ga kamaygan hamda ularning soni 719 ni tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 1310 ta (9,5 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 15052 ni tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Nukus shahrida (32,2 %), To'rtko'l (9,8 %), Beruniy (8,3 %) va Amudaryo (7,4 %) hududlarida kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 sentyabr holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Qoraqalpogiston Respublikasi	15536	100,0	15052	100,0
Nukus sh.	4969	32,0	4848	32,2
<i>tumonlar:</i>				
Amudaryo	1142	7,4	1114	7,4
Beruniy	1274	8,2	1245	8,3
Qanliko'l	446	2,9	443	2,9
Qorao'zak	457	2,9	456	3,0
Kegeyli	870	5,6	825	5,5
Qo'ng'iro't	407	2,6	401	2,7
Mo'ynoq	251	1,6	249	1,7
Nukus	645	4,2	624	4,1
Taxiatosh	432	2,8	413	2,7
Taxtako'pir	298	1,9	289	1,9
To'rtko'l	1580	10,2	1470	9,8
Xo'jayli	789	5,1	739	4,9
Chimboy	603	3,9	580	3,9
Shumanay	376	2,4	367	2,4
Ellikkala	997	6,4	989	6,6


Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 96,9 %ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 3,1 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 1,3 f.p. kamaydi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 20,5 % savdoda, 12,4 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 10,7 % sanoatda, 10,6 % qurilishda, 5,9% yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,9% tashish va saqlash, axborot va aloqada 1,9 % hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1,8 % dan, 31,3 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




2018 yil yanvar-avgustda 1866 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 35,6 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Nukus shahrida (573 ta), To'rtko'l (158 ta), Amudaryo (150 ta) va Qo'ng'iro't tumanida (117 ta) tashkil etilgan. Eng kam Mo'ynoq (51 ta), Kegeyli (47 ta) hamda Taxtako'pir (41 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (271 ta), savdoda (316ta), sanoatda (300 ta) va qurilishda (264 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarida (35 ta) hamda axborot va aloqada (15 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda





Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-avgust	2018 yil yanvar-avgust
Jami:	1377	1866
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	309	271
Sanoat	304	300
Qurilish	156	264
Savdo	223	316
Tashish va saqlash	46	58
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	103	105
Axborot va aloqa	28	15
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	31	35
Boshqa turlari	177	502

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)


2018 yil 1 sentyabr holatiga 11554 tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, shundan xususiy korxonalar – 2829 ta, oilaviy korxonalar – 589 ta, mas`uliyati cheklangan jamiyatlar – 7813 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 32 ni va boshqalar 291 ni tashkil etadi.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 sentyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 99 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 26 taga yoki 35,6 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 57 tasi qo'shma korxonalar, 42 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Nukus shahar 19 ta (19,2 %), Mo'ynoq tumanida 12 ta (12,1 %), Kegeyli tumanida 8 ta (8,1 %), Qo'ng'iroq, Taxiatosh va Nukus tumanlarida 7 tadan (7,1 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Ellikkala tumani 1 ta (1,0 %), Shumanay va To'rtko'l tumanlarida 2 tadan (2,0 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur tumanlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 sentyabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 48 ta (48,5 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 27 ta (27,3 %), savdoda 15 ta (15,2 %) , eng kamlari esa qurilishda 3 ta (3,0 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 2 ta (2,0 %), tashish va saqlash hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 1 tadan (1,0 %), tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi qishloq va o'rmon xo'jaligi, sanoat hamda savdo faoliyat turlariga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, tashish va saqlash hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-avgust oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalar soni 19 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12 taga ko'paygan yoki 2,7 baravarga oshgan.


Bunda, Qozog'iston Respublikasi – 4 ta, Xitoy Xalq Respublikasi kapitali ishtirokida – 5 ta, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi hamda Koreya Respublikasida – 1 tadan va boshqa davlatlardan 7 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar kesimidagi soni, (1 avgust holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 11 ta, sanoatda 4 ta, savdoda 2 ta, qurilishda hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish faoliyat turlarida 1 tadan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 sentyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 11483 ni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 sentyabr holatiga qaraganda 9,7 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 4009 (34,9 %) Nukus shahriga, 1223 (10,6 %) To'rtko'l, 982 (8,6 %) Beruniy hamda 812 (7,1 %) Amudaryo tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11483 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3071 (26,7 %) – savdoda, 1814 (15,8 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1586 (13,8%) - qurilishda, 1585 (13,8 %) - sanoatda, 878 (7,6 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 738 (6,4 %) - tashish va saqlashda, 248 (2,2 %) - axborot va aloqa sohasida, 197 (1,7%) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 1366 si (12,0 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-avgust oilarida 1466 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 13,1 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Nukus shahrida (491 ta), To'rtko'l (137 ta), Amudaryo (118 ta) va Qo'ng'rot tumanida (91 ta) tashkil etilgan. Eng kam Taxtakupir (25 ta), Q'anliko'l (31 ta), Kegeyli va Muynak (34 tadan) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (316 ta), sanoatda (300 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (269 ta) va qurilishda (264 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (15 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (34 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 sentyabr holatiga 613 tani tashkil etib, ulardan 589 tasi yoki 96,1 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **21,3** % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 30,1 % yoki 177 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 27,0 % yoki 159 tasi sanoat, 22,1 % yoki 130 tasi savdo, 7,6 % yoki 45 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,5 % yoki 9 tasi axborot va aloqa, 2,0 % yoki 12 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 0,7 % yoki 4 tasi qurilish, 0,3% yoki 2 tasi tashish va saqlash hamda 8,7% yoki 51 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi

Statistik registrarni yuritish bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

Z.Qalmuratova
(0371) 230-82-23



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan